

project by



STATISTIKA

Statistika ma'lumotlariga ko'ra, 2023-yilda O'zbekistonda faoliyat ko'rsatayotgan korxona va tashkilotlar soni 592 371 tani tashkil etadi. Ulardan 523 556 tasi, ya'ni 88% kichik tadbirkorlik subyektlari hisoblanadi.


592 371 O'zbekistondagi korxona va tashkilotlar

523 556 kichik tadbirkorlik subyektlari


88%

STATISTIKA

Har yili O'zbekistonda 10 000 dan 50 000 tagacha korxona faoliyati tugatiladi. Umuman olganda, turli davlatlar va sohalar kesimida birinchi yil startaplarning 20-30 foizi vayron bo'ladi, ikkinchi yil — 15 foizi, uchinchini yana 10 foizi.



Har yili O'zbekistonda **10 000** dan **50 000** tagacha korxona o'z faoliyatini yakunlaydi.



MUAMMO

Bizneslarning raqamli bozorga o'tolmasligiga va yopilishiga:

- ! boshqaruvning noto'g'riliqi
- ! moliyaviy savodsizlik
- ! marketing instrumentlaridan foydalanmaslik yoki noto'g'ri foydalanish
- ! mahsulot va xizmat sifatining yomonligi
- ! va yana boshqa sabablar bo'lishi mumkin



Sabablardan yana bir muhimi — bu korxonaning boshqalaridan ajratib turuvchi belgisi bo'lmasligi.

Bu — logotip!

LOYIHA HAQIDA



**Biz Logochi loyihasini 2021-yilda
eksperiment tarzida ishga tushirdik**

Loyihaning asosiy maqsadi

yangi ish boshlagan kichik biznes vakillariga boshqalardan ajralib turishlari,
bozorda o'z o'rinalarini egallashlari uchun hamyonbop narxlarda sifatli logotip
yaratish xizmatini yo'lga qo'yish.

BAJARILGAN ISHLAR




3 marta

ijtimoiy aksiya o'tkazildi



386 ta murojaat

aksiya doirasida kelib tushdi



30 ta korxona

30 ta kichik korxona uchun
bepul logotip yaratib berdik — har bir
aksiya doirasida 10 tadan

Ayni damda bepul logotip taqdim etilgan 30 ta korxonadan 24 tasi
shu logotiplardan foydalanmoqda.

24

30

NATIJALAR



biz aksiya doirasida logotip qilib berilgan korxona rahbarlari bilan bog'lanib, logotipning biznesga ijobiy ta'siri haqida so'rov o'tkazdik



Kompaniyalarda sotuvlarning o'rtacha hajmi 30% ga oshdi



undan tashqari, Logochi Telegram kanaliga 380 ta kichik biznes vakillari obuna bo'ldi. Bu 380 ta potensial mijoz degani

Minim agentligi bu loyiha orqali:

- ✓ o'z taniqliligini oshirdi
- ✓ loyallikning ortishiga erishdi
- ✓ mijozlar bazasini kengaytirdi

XANAVI

**Avtomobilarning bort
qurilmalarini rus tiliga o'zgartirish
(rusifikatsiya), modifikatsiyalash
va ta'mirlash yo'naliishi**

Bu xizmatdan foydalanuvchilarning ko'pchilik qismi —
Xitoydan keltirilgan inomarkalar egalari, chunki mashina
bosh qurilmasi faqat xitoy tilida bo'ladi.

Bizning oldimizda kompaniya faoliyatini ochib beruvchi
logotip ishlab chiqish vazifasi turgandi. Buning uchun
biz rus va xitoy millati madaniyatiga murojaat qildik.
Birinchesidan milliy o'yinchoq bo'lmish matryoshkani
olgan bo'lsak, ikkinchesidan qizil rangni o'zlashtirdik,
ya'ni qizil rang xitoyliklar uchun baxt va omad rangi
hisoblanadi. Matryoshkaning o'zi esa xitoylik
qizaloqqa o'xshatildi.



XANAVI

VELOMAX

**Mahalliy va xorijiy bozor uchun
velosipedlar ishlab chiqarish**

Logotipda oilaviy, 3 kishilik velosiped aks etgan.
Bu zavodning barcha uchun mos keluvchi turli xil
velosipedlar ishlab chiqarishini anglatadi. Nomdag'i
"Max" (maksimal) so'zi ham shu jihatga urg'u qaratadi.

Zigzag shaklidagi rama V va M harflarini ifoda etmoqda
va bu zigzag chiziqlar Brend aydentikasi sifatida
ham hizmat qiladi.



VELOMAX



MASKARAD

**Bog'cha va maktab yoshidagi
bolalar uchun bayram liboslarini
ijaraga berish xizmati**

Maskotni akula qahramoni libosini kiyib olgan bolakay shaklida aks ettirdik. Logoni ishlab chiqishda biz Baby Shark qo'shig'idan ilhomlandik. Bugungi kunda bu mashhur qo'shiqni eshitmagan bolakay bo'lmasa kerak.

Shrift ham qahramon chizilgan uslubga moslab tanlandi — qalin liniyalar, yumaloqlangan burchaklar, multiplikatsion ko'rinish.



MASKARAD

DICLOUD

**Bulutli maydonlarni ijara
berish xizmati**

Kompaniyaning asosiy mijozlari — 1C dasturi bilan
ishlaydigan buxgalterlar va direktorlar.

Ushbu logotip 1C dasturi foydalanuvchilariga begona
bo'lmashligi uchun 1C dasturi logosidan foydalangan
holda nomining birinchi qismi Di va bulut
ikonkasini birlashtirdik.



ERGONOMIKA

**Ergonomik va qulay mebellar ishlab
chiqaruvchi kompaniya**

Kompaniya taqdim etayotgan stollarning asosiy mijozlari — dasturchilar, dizaynerlar, ofis ishchilari, umuman olganda, uzoq vaqt o'tirib ishlaydiganlar. Ma'lumki, bunday sohalarda to'g'ri o'tirish salomatlik uchun muhim ahamiyatga ega. ERGONOMIKA foydalanuvchilari o'z istagiga ko'ra stolni bir necha darajalarda baland-past qilishlari mumkin.

Logotipda kompaniya nomining birinchi harfi "E" shunday ifodalandiki, uning yordamida balandlik bosqichlari ham ko'rsatib berildi.



POCHTACHI

**Turkiya va boshqa davlatlardagi
pochta/kargo kompaniyalari uchun
biznes jarayonlarni avtomatlashtirish
xizmati (dasturiy ta'minot)**

Bu logotipda biz kreativ yondashib, xabarni jo'natishning qadimgi uslubi bo'lmish butilka pochtasi tasvirini aks ettirdik.

Birinchidan, bunday logotip kompaniya faoliyati pochta sohasiga bog'liq ekanini darhol ifodalaydi.

Ikkinchidan, xuddi butilkadagi xabarni nazorat qilishning hojati bo'lmanidek, majoziy ma'noda pochta xizmatlarini avtomatlashtirgandan keyin ham ortiqcha e'tibor va kuch talab qilinmasligini anglatdik.

Uchinchidan, butilka suvda sinmaydi va chirimaydi, ming yillab saqlanib qolishi mumkin. Xuddi shu kabi avtomatlashtirish dasturi ham pochtalar xavfsizligini to'liq ta'minlashiga ishora qildik.



Pochtachi

MUHTASHAM DARVOZA

Temir darvoza va panjaralar
ishlab chiqarish

Kombinatsiyalangan turdagi logotip. Grafik element kompaniyaning tojli bosh harflari — M va D harflarini ifodalaydi. Element korxonaning asosiy mahsulotlari — panjaralar va eshiklar tasvirini ko'rsatadi. Toj bilan gerbning shakli esa mahsulotning premium sifatifa urg'u qaratadi.

Logo ostida brend nomi ikki qismga bo'lib yozilgan. "Muhtasham" so'zi panjalarga qiyoslangan, "Darvoza" esa o'ziga e'tiborni tortadi, ammo vizual yaxlitlikni saqlab qolgan.



MUHTASHAM
DARVOZA

GAZONCHI.UZ

Tabiiy gazon o'stirish xizmati

Kompaniya faoliyatiga urg'u qaratish uchun biz logotipning grafik qismida gazon o'rami va shilliqurtni aks ettirdik.

Shilliqurt uzoq umr va unumdorlikni ifodalaydi. Uning gazonda yurishi esa mahsulotning tabiyligi, sofligi va sifatli ekanidan dalolat qiladi.



Gazonchi .uz

EVOSOFT

Dasturiy ta'minot ishlab chiqish bilan shug'ullanuvchi IT-kompaniya

Logotipning asosiy qismi matnli ko'rinishda aks ettirildi. Biz yorqin, mayin liniyali va qalin enli shrift tanladik. Grafik element sifatida o'ng tarafda burchakli qavsdan foydalandik, bu html dasturlash tilining belgilaridan biri. Masalan, <p> belgisi ko'p ishlatiladi — u tegni yopish va gapni yangi satrga o'tkazish funksiyasini bajaradi.



SAYQAL CHARM

**Charm mahsulotlarini
ishlab chiqarish**

Ustaxona asosan charm mahsulotlari bilan ishlaydi, shu bois biz shu turdagи buyumlarning yorlig'i ifodaylovchi tanish obrazni ko'rsatib berdik. Logotipni yakunlash uchun qalin yozuvli tipografikadan foydalandik.



KEGEYLI EXTRACT

Dorivor o'simliklar eksporti

Logotipning asosini ikki tarafdan barglari ikki tarafga qarab o'sgan o'simlik illyustratsiyasi tashkil qiladi.

O'simlikning ustiga suyuqlik tushmoqda — bu suv hamda tabiiy qo'shimchalar, ular tufayli dorivor giyohlar o'sayotgan paytda o'z xususiyatlarini saqlab qoladi.


Shrift kompozitsiyasi tekis burchakli va biroz cho'zilgan holda elegant uslubda ishlangan. Logotipning bu ko'rinishda ishlangani kompaniyaga kelajakda mahsulotlar assortimentini oshirish imkonini beradi.



KEGEYLI EXTRACT



XULOSA



Kichik biznes — mamlakat iqtisodiyotining asosiy ustunlaridan biri, uni rivojlantirish orqali iqtisodiy o'sish, innovatsiyalar va ish o'rinalarini yaratishga erishish mumkin.



Shularni inobatga olib, kichik biznesni qo'llab-quvvatlash orqali iqtisodiyot o'sishiga oz bo'lsa-da hissa qo'shayotganimizdan mammunmiz.

Biz kelajakda Logochi loyihasi doirasida yana ijtimoiy aksiyalar o'tkazishni reja qilganmiz

E'TIBORINGIZ UCHUN RAHMAT!



minim.uz